


IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **64,6 %** ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **3 741** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **75,8 foizni** tashkil qildi.



Eng ko'p yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 1 293 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 810 ta, sanoat tarmog'ida 628 ta, yashash va ovqatlanishda 330 ta, qurilish tarmog'ida 152 ta, axborot va aloqada 91 tani tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 64,6 foizi (2023- yil yanvar-sentabrda 64,3 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.



sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 7 972,1 mlrd. so'mni (27,7 foiz) (faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3 212 tani tashkil etdi);



31 064,7 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 99,6 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 4 398 tani tashkil etdi;



11 000,0 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 45,1 foizi) 2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 177,5 foizni tashkil etdi;



7 186,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 69,3 foizi) (qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 2 138 tani tashkil etdi);



- avtomobil transporti yuk aylanmasining 11,2 foizga (viloyatning jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 89,5 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 3,4 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 94,1 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 781 tani tashkil etdi);




chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 95,0 foizi yoki 16 355,8 mlrd. so'm, xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 25,5 foizi yoki 4 982,7 mlrd. so'mni, tashkil qildi. faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 9 607 ta




73,5 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 18,3 foizi) 400,2 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 73,4 foizi) ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi




	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.soʻm</i>	<i>kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi	31 064,7	99,6
Sanoat	7 972,1	27,7
Qurilish	7 186,4	69,3
Chakana savdo	16 355,8	95,0
Yuk tashish, mln tn.	32,1	87,7
Yoʻlovchi tashish, mln. kishi	266,9	91,1
Eksport, mln. AQSH doll.	73,5	18,3
Import, mln. AQSH doll.	400,2	73,4

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti
(ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik
tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi**
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




2024- yil 1- oktabr holatida 43 041 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (41 926 ta) 102,7 foizni tashkil etdi.




Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo tarmog'ida barcha ro'yxatdan o'tganlarning (34,8 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (21,3 %), sanoat (14,0 %), qurilish (8,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (6,0 %), tashish va saqlash (2,8 %) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1,9 %) iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi




Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Kitob (512,2 mlrd. so'm), Muborak (512,6 mlrd. so'm), Chiroqchi (553,1 mlrd. so'm), Nishon (560,8 mlrd. so'm), Qarshi shahri (1 655,8 mlrd. so'm), tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Qarshi (3 944,2 mlrd. so'm), Shahrisabz (1 278,9 mlrd. so'm) shaharlari va Chiroqchi (1 354,0 mlrd. so'm) va Koson (1 318,5 mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko'rsatish hajmi va o'sish sur'atlari



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 64,6 foizni tashkil qilib, 2023- yilning mos davrida 64,3 % foizni tashkil qildi.

Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Ko'kdala tumani (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Shahrisabz shahri (79,2 %), Chiroqchi (69,9 %) tumanlariga va eng past ulushi Nishon (2,5 %) tumaniga to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasida tuman bo'yicha jami xizmat ko'rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Mirishkor (84,8 %), Qamashi (83,3 %), Kitob (82,4 %), Koson (81,6 %), Ko'kdala (81,1 %), Kasbi (79,9 %), Yakkabog' (79,6 %), Nishon (77,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.